

**MAXALLALARDA VA TA'LIM MUASSASALARIDA OTA-ONALAR
BILAN PSIXOLOGIK VA TARBIYAVIY ISHLAR OLIB BORISH
STRATEGIYASI VA USLUBLARI**

*Toshkent Arxitektura qurilish instituti o`qituvchisi
Ochilova Mo`tabar Safoevna*

Ta`lim va tarbiya o`chog`i oila hisoblanadi. Zero, oilada muhit sog`lom bo`lsagina farzandlar tarbiyasi, axloq va odobi, yurish-turishi, va albatta yashash tarzi sog`lom bo`ladi. Hozirgi davrda, ta`lim sohasining o`sishi yoki oqsay boshlashiga asosiy turtki qilib faqatgina pedagoglarni sababchi qilibgina qolmay, ota-onalarni ham asosiy mas`ul shaxs etib ko`rsatsak, nur ustiga a`lo nur bo`lar edi. Chunki, inson bolasi paydo bo`lishidan to tug`ilgunga qadar onaning yuragi ostida, hamnafas tarbiya olmoqni boshlaydi. So`ngra, dunyoga kelar ekanki, oila atalmish dargohda o`z hayotini davom ettiradi. Demak, oilada turmush sog`lom bo`lsa farzand tarbiyasi sog`lom bo`ladi. Bu borada albatta ota-onalar, oila a`zolari asosiy mas`ul shaxslar hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim muassasalariga qadar bola tarbiyasi ota-onalar tomonidan quriladigan poydevor sanaladi. Farzandimizni bolalar bog`chasi (maktabgacha ta`lim muassasasi) ga topshirar ekanmiz, tarbiya borasidagi tom ma`nodagi yordamchilarga ega bo`lamiz. Lekin biz bola tarbiyasidan ozod bo`ldik degani emas, mas`uliyatimiz yanada oshirildi deganidir. Aynan shu davr ichida yosh bolalarda hayotga adaptatsiya yani ko`nikish holatlari yuzaga kelish payti sanaladi. Demak, shu davrda farzandlarimizni tarbiyachilar qo`liga topshiribgina qolmay, ular bilan teng mas`ul hisoblanamiz. Bu jarayon tarbiya poydevorining asosiy qismi ekanligini unutmashimiz lozim. Shuni unutmashimiz kerakki, poydevori mustahkam imorat har qanday falokatlarga bardosh bergani kabi, tarbiyasi mustahkam farzandgina hayot yo`llarida duch keladigan har qanday to`siqlarni yengadi. Bu degani, ta`lim sohasida ham katta yutuqlarga ega boladi.

Ana shundan keyingina maktab dargohiga qadam qo`yadi. Ana endi asosiy davr bilan yuzma-yuz keladi. Biz boshlang`ich bosqichidan oraliq bosqichga o`tamiz. Maktab davrida ular bilim olish bilan birga tarbiyani mustahkamlaydilar. Ana endi ota-onalar mas`ulligi yanada kuchayadi. Pedagoglar ota-onalarga katta va og`ir tarbiya jarayonidagi haqiqiy do`stiga aylanadi. Maktab o`qituvchilari, rahbar, rahbar o`rinbosarlari, mahalla mas`ullari bir-biri bilan hamnafas xolda, hamfikir holda ish olib borishlari lozimdir. Pedagoglar ta`lim bersa, mahalla nazorat qiladi, ota-onalar asosiy tarbiya, sog`lom tarbiya tayanchi hisoblanadi. Demak, biz farzandlarimizni tarbiyalashdan oldin ota-onalarimizni tarbiyalashimiz, psixologlarimizni ham shu jarayonga jalb qilishimiz lozim. Nimaga degan sovol tug`iladi? Bilamizki, juda ko`p oilalarda giyohvandlikka, ichkilikbozlikka ruju qo`ygan, faxsh yo`liga kirib qolgan,

yoki ajrim natijasida yolg`iz qolgan onalar tarbiyasidagi yosh avlod bilan ishlashimizga to`g`ri keladi. Bu degani, bola nosog`lom muhit qurboni sanaladi. Demak, biz qiyin vaziyatga duch kelamiz. Chunki bunday bolalar bilan ishlashda yolg`iz maktab o`qituvchisining o`zi ojizlik qiladi. Endi shu jarayonga biz nafaqat mahalla oqsoqollari, psixologlarni ham jalb qilishimiz lozim. Birinchi o`rinda tarbiyaga muxtoj ota- onalarni, so`ngra, bolalarni tarbiyalashimizga to`g`ri keladi. Buning uchun mahallalarda ota- onalar maktablari tashkil qilinishi kerak. Mazkur maktablarda mahalla oqsoqollari, xotin- qizlar qo`mitasi vakillari, yoshlar ittifoqi mas`ul xodimlari, va albatta, psixologlar katta tashabbus ko`rsatishlari maqsadga muvofiq. Ota-onarimizga psixologik darslar o`tilishi lozim, so`zlashuv madaniyatini, kiyinish odobini, urf-odatlarimizga rioya qilgan tarzda madaniyatimizni, yoshi ulug`larni hurmat qilishni, va farzandlarimiz bilan tarbiya borasida ehtiyotkorona muomola qilishimiz kerakligi haqida keng miqyosda trening darslar olib borilishi lozim. Farzandimiz oldida odob bilan gapirishimiz, janjallarga chek qo`yishimiz, g`iybat, fisqu-fasoddan yiroq bo`lishimiz, dunyo tashvishlarini chekkaga surub, bola tarbiyasiga salbiy tasir ko`rsatadigan nuqsonlarimizni yo`q qilishimiz kerak bo`ladi. Demak, shunday maktablarda yuqori darajaga erisha olgan ota –onalargina mahalla, maktabgacha ta`lim muassasalari, maktab va oliy yurt ta`limi hodimlari bilan farzand tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishlari mumkin.

Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, bola tarbiyasida birinchi mas`ul shaxs bu oila, yani ota-ona demakdir. So`ngra mahalla, maktabgacha ta`lim, maktab, oliy o`quv ta`limi hisoblanadi. Xalqimiz bejiz aytmagan, “bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla mas`ul”, deb. Bolalarni toza muhitda tarbiyalamasak kelajakdan umid qilmasak ham bo`ladi. Har bir maxalla o`z psixologiga ega bo`lishi lozim, chunki hamma muommo oilaviy nizolardan kelib chiqadi, oila tinchligi- yurt tinchligi.

Yoshlarga ma`naviy- ma`rifiy yordam berib borish lozin. Chunki yomon insonni o`zi bolmaydi, yomon insonni biz yaratamiz. Karimov Islom Abdiganievich aytganlaridek ikkichi o`quvchi bo`lmaydi, ikkichi o`quvchini o`zimiz yaratamiz va tarbiyasiz bolisi 70% ota-onaga bog`liq bolsa, 30% boshlang`ich o`qituvchisiga bog`liqdir, chunki farzandimiz 19 soat uyida bo`lsa atigi 5-6 soat maktabda bilim olish uchun boradi. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta`sir ko`rsatishga qodirdir. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta`sir ko`rsatishning chuqur o`ziga xosligi bilan uyg`unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta`sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo`g`iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o`ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro`liligi va hokazolar bilan ta`minlanadi. O`z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini

yo`rgakdagi chog`idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o`rgata oladi!

Hozirgi davrda ota-onalar bilan pedagoglar hamkorligiga alohida e'tibor berilmoqda va bu ta'lim tarbiya ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Qiyin ahvolga tushib qolgan oilalar uchun psixologik yordam zarur. Muammolarga tashqi o'zgarishlar (bolalardagi yosh inqirozlari, ota-onalarning ajrashishi, yaqin kishining o'limi) yoki aniq odamlarning individual xususiyatlari sabab bo'lishi mumkin. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'rilash oilada qulay iqlim sharoitlarini yaratishni, kattalarga bola bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Muammoni tushunishi va uni hal qilishga tayyor bo'lishi muhimdir. Psixolog o'z ishida turli hil texnikalardan foydalanadi. Ota-ona munosabatlarini tuzatish mumkin, ammo bu juda katta kuch va sabr-toqat talab qiladi. Eng ko'p ishlatiladigan: voyaga etgan oila a'zolari bilan suhbatlar. Ular davomida ota-onalar farzandining rivojlanishi, uning psixologiyasi va yosh xususiyatlari haqida ma'lumot olishadi.

Muhokamalar: Kattalar psixolog tomonidan taqdim etilgan mavzuga o'z munosabatlarini bildirishlari so'raladi. Shuningdek, munozaralar muayyan oiladagi ta'lim faoliyatini tahlil qilishga, fikr almashishga, muammoning mohiyatini tushunishga va birgalikda optimal yechimni ishlab chiqishga yordam beradi.

Biblioterapiya: Ota-onalardan bolalarni tarbiyalashga oid kitoblarni o'qib, so'ngra ushbu masala bo'yicha o'z fikrlarini o'rtoqlashishlari so'raladi.

Treninglar: Ota-onalar oilaga xos bo'lgan qiyin vaziyatlarda rol o'ynashga da'vat etiladi. Shu bilan birga, muammodan chiqishning yangi variantlari izlanmoqda, samarali xulq-atvor usullari ishlab chiqilmoqda.

Kattalar bolasini qabul qilish va qo'llab-quvvatlashga o'rgatiladi. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash uchun ota-onalar:

Bolaga muhabbat, u bilan faxrlanishni namoyish eting.

Birodaringizning kuchli tomonlariga asoslanib, o'tmishdagi muvaffaqiyatsizliklar haqida eslamang.

Bolalar bilan ko'proq mashg'ulotlarni toping, aldanib, kuling.

Bolaga mumkin bo'lgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, xatolarining oqibatlarini tuzatishga imkon bering.

Qattiq jazo va tanqiddan saqlaning.

Bolalarni tinglang, ularga nekbinlik baxsh eting, eng kichik yutuqlardan xursand bo'ling.

Bundan tashqari, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish logoped faoliyati bilan tanishtiribgina qolmay, balki har bir ota-ona o'z bolasini tengqurlari bilan

taqqoslashdan yiroq holda, unga o`z bahosini qo`yish bilan birga undagi kamchiliklarni bartaraf qilish choralarini qidiradi. Ota-onaning sevgisi, muvaffaqiyati, yaxshi xulq-atvori bola uchun mukofot bo'ladi. Bunday oiladagi bolalar tashvish bilan o'smaydi, chunki ular doimo ona va otaning sevgisiga loyiq ekanliklarini his qilib yashaydilar.

Ikkilamchi munosabat. Ota-onalar bolaga qarama-qarshi hissiyotlarga ega. Ular yuqori darajadagi tajovuzkorlik bilan ajralib turadi, chaqaloq qattiq jazolanadi. Qolgan vaqtlarda kattalar haddan tashqari g'amxo'rlik ko'rsatib, o'zlarining ayblarini qoplashga harakat qilishadi.

Kattalar bolalarga bo'lgan muhabbatni his qilmasa, befarq munosabat, sovuqqonlik, va o'zlaridan uzoqlashishga harakat qiladi.

Yashirin rad etish: Rasmiy ravishda, ota-onalar o'z vazifalarini muntazam ravishda bajaradilar, biroq ayni paytda ular doimo boladan norozi bo'lib, uning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bola tarbiyasi butun jamiat zimmasidadir. Zero, oila –jamiatning bir yacheykasi, asosiy negizi hisoblanadi. Oilada muhit sog`lom bo`lsagina, bola tarbiyasi va tafakkuri mustahkam bo`ladi.

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. “

Abdulla Avloniy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat». T., «O‘zbekiston» 1992 yil
2. I.A.Karimov. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». T., «O‘zbekiston» 1995 yil
3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son qaroriga.